# CREATIVE THINKING YOUNG GENERATION IN MOTHER TONGUE LESSONS METHODS OF EDUCATION

**Mahliyo Nabiyeva**
TDPU named after Nizami
Faculty of Foreign Languages
303 level students

**Annotation:** The article is creative for each lesson taught by the teacher approach, organization of classes on the basis of advanced pedagogical technologies,effective use of every minute of the lesson, the foundation and science in the course of the lesson.There is a need to inculcate relevant competencies.

**Keywords:** Intellectual, Pedagogical Technology, Standard.

# ONA TILI DARSLARIDA IJODIY FIKRLOVCHI YOSH AVLODNI TARBIYALASH USULLARI

**Mahliyo Nabiyeva**
Nizomiy nomidagi TDPU
Xorijiy tillar fakulteti
303-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Maqola muallimning har bir o_tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg_ulotlarni ilg_or pedagogik texnologiyalar asosida tashkiletishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, dars jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni singdirib borishi zarurligi tog_risida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar**: intellektual, pedagogik texnologiya, standart.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo_lib, dunyo miqyosida o_z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo_sh kelmaydigan insonlar bo_lib kamol topishi, baxtli bo_lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamoqda, albatta bu ulug_ maqsadni ro_yobga chiqarish ta‘limi tizimida faoliyat ko_rsatayotgan barchao_qituvchilarning o_z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish, zamonaviy pedagogik usullarni qo_llab darslarni samarali tashkil etishni talab qiladi.

O_quvchiga puxta bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, samarali pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi.

Ruhshunoslarning aniqlashicha, o_qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma‘lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o_zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o_zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o_quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko_rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko_plab o_quv materiallarini hayolidan o_tkazadi va mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O_qituvchilarning tayyor holda bergan ma‘lumotida esa o_quvchi fikrlash faoliyati to_la ishga kirishmasdan to_g_ri javobni o_zlashtirib oladi. O_xshash hodisalarga duch kelishi bilan o_qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Shuning uchun har bir darsda qo_llanislgan pedagogik texnologiyalar va usullar o_quvchining mustaqil faolligini oshirishga yo_nlatirilgan bo_lishlari muhimdir.

Bugungi yangi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta‘lim standarti va ta‘lim tizimi biz o_qituvchilar oldiga o_ta mas‘uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o_tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg_ulotlarni ilg_or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, dars jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni singdirib borishi zarur.

Mashg_ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o_quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo_lganbilimlar hajmini, o_zida hosil qiladigan ko_nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o_z navbatida o_quvchining mashg_ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o_quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo_lishi zarur. Pedagogik texnologiyalar asosida darslarning tashkil etilishgi o_quvchilarni o_zi bajarayotgan mashg_ulotga nisbatan ongli munosabatda bo_lishga o_rgatadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar haqidagi bilimlarni puxta egallaydi.

Zero, O_zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti muhtaram Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: ―Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrllash qobiliyatiga ega bo_lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining eng asosiy maqsadi va vazifasi bo_lishi lozim‖. Deb aytganlaridek, har bir fan yo_nalishi bo_yicha o_tiladigan mavzuni o_qituvchi mukammal tushuntirishga erishsa va yangi mavzu mazmunini chuqur anglasa, darsdan ko_zlangan maqsadga to_liq erishiladi.

Xullas, yurtimiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan yangi davlat ta'lim standarti o_quvchilarning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo_llay olishlarini ta'minlaydi. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz: ―Dunyo imoratlari ichida eng ulugi bo_lmish maktab va unda kasblar ichida eng mashaqqatli va sharaflisi bo_lmish o_qituvchilik sohasi bilan shug_ullanadigan mehribon jonkuyar ustozlarimiz voyaga yetkazadi‖, -deb aytganlarida naqadar haq edilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro„yxati**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: ―Ma'naviyat, 2008.
2. O_zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Nashrga tayyorlovchi: Rahmatullayev Sh. –Toshkent: O_qituvchi, 2015.
3. Rahmonov N. Sodiqov Q. O_zbek tili tarixi. – Toshkent, 2009.
4. To_xliyev B. va boshqalar. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2011.